



UNIVERSITY
OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES

TOWARDS A NEW ECONOMY, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY

**SCIENTIFIC ELECTRONIC
JOURNAL**

ISSN 3060-5342
№2 (1) 2025



journal.usat.uz

ISSN 3060-5342

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
UNIVERSITY OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES
SCIENTIFIC ELECTRONIC JOURNAL
«TOWARDS A NEW ECONOMY, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY»
Volume 1 Issue 2 (2025)

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ,
НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
УНИВЕРСИТЕТ НАУКИ И ТЕХНОЛОГИЙ
НАУЧНЫЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
«К НОВОЙ ЭКОНОМИКЕ, ПЕДАГОГИКЕ И ТЕХНОЛОГИЯМ»
Том 1 № 2 (2025)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FAN VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
«YANGI IQTISODIYOT, PEDAGOGIKA VA TEXNOLOGIYALAR SARI»
ILMIY ELEKTRON JURNALI
1-jild 2-son (2025)

CONTENTS

08.00.00- ECONOMIC SCIENCES

Abdullaev Aziz. TRANSPORT POTENTIAL OF THE MEMBER COUNTRIES OF THE ORGANIZATION OF TURKIC STATES	18
Garakanidze Zurab, Gaibnazarova Zumrat. FORMING OF THE GAS SPOT MARKET	25
Davronov Istamkhuja. DIRECTIONS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE COMPETITIVENESS OF HOTEL SERVICES (using the example of the city of Bukhara)	38
Irisbekova Mavluda. CALCULATION OF THE EKONOMIC EFFICIENCY OF OPTIMIZATION OF THE MARKET OF TRANSPORT SERVICES ON THE BASIS OF MARKETING PRINCIPLES	46
Karapetyan Andrey. COORDINATION MECHANISMS AND STRATEGIC GUIDELINES FOR THE FORMATION OF THE COMMON SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL AREA OF THE CIS	56
Kilichov Mukhriddin. BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF ARCHITECTURAL HERITAGE AND TOURISM	66
Radjabov Odil. PROSPECTS FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF NATURAL OBJECTS USING THE EXAMPLE OF THE «ANCIENT AND ETERNAL BUKHARA» PARK IN BUKHARA	79
Ruziyeva Gulinoz. OPPORTUNITIES OF INCREASING THE EFFICIENCY OF SERVICE TO CONSUMERS THROUGH THE DIVERSIFICATION OF NATIONAL CRAFTSMANSHIP PRODUCTS IN THE BUKHARA REGION	89
Suleymanova Shoir, Abdukhakimova Aziza. GREEN SUKUKS: A NEW FORM OF SUSTAINABLE FINANCING IN UZBEKISTAN	103
Tojiqulova Sitara, Malikov Numonjon. THE IMPACT OF WTO MEMBERSHIP ON ATTRACTING FOREIGN DIRECT INVESTMENT TO CHINA: LESSONS FOR UZBEKISTAN	111
Khudoyarov Anvar, Saydazimova Shakhnoza. ANALYSIS OF THE STATE, PROSPECTS AND INTEGRATION OF UZBEKISTAN'S SERVICES MARKET INTO THE WORLD MARKET	122
Khaydarova Dilora. SIGNIFICANCE AND CHARACTERISTICS OF MEDICAL TOURISM	131

UDC: 338.482.22

JEL: L83

TIBBIY TURIZMNING AHAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI
SIGNIFICANCE AND CHARACTERISTICS OF MEDICAL TOURISM
ЗНАЧЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ МЕДИЦИНСКОГО ТУРИЗМА



Haydarova Dilara Ikhtiyorovna [0009-0001-1289-1627]

Buxoro davlat universiteti, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası"
o'qituvchisi

Khaydarova Dilara Ikhtiyorovna

Bukhara state university, teacher of the department «Tourism and hotel
management»

Хайдарова Дилора Ихтиёровна

Бухарский государственный университет, преподаватель кафедры
«Туризм и гостиничное хозяйство»

E-mail: d.i.haydarova@buxdu.uz; **Phone:** +998919222812

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy turizm, uning xususiyatlari, mamlakatimizda tibbiy turizmga oid amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning samarasi, tibbiy turizmga oid xorijiy olimlar tomonidan berilgan ilmiy asoslar o'rganilib, tahlil qilindi. "Tibbiy xizmatlar mehmondo'stligi" dasturini amalga oshirish, tibbiy turizm klasterlarini yaratish va rag'batlantirish, "Avitsenna" brendi ostida tibbiy turizmni targ'ib qilish; toifali sanatoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yish va sertifikatlashtirish, shifobaxsh hududlarda sanatoriy-kurort zonalarini tashkil qilish choralari belgilab berildi. Shuningdek, tibbiy turizm rivojlangan mamlakatlar xorij tajribasi o'rganildi. Xususan, Hindiston va Janubiy Koreyaning Jeju oroli misolida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: tibbiy turizm, islohotlar, Hindiston, Janubiy Koreya, Jeju oroli, Kohen, sayyohlarning turlari.

Abstract. This article analyzes medical tourism, its characteristics, and the reforms implemented in our country related to medical tourism, along with their effectiveness. It also examines definitions of medical tourism provided by foreign scholars. Measures such as the implementation of the «Medical Service Hospitality» program, the creation and promotion of medical tourism clusters, the development of the «Avicenna» brand to market Uzbekistan's medical tourism, the establishment and certification of categorized (star-rated) sanatoriums, and the creation of sanatorium-resort zones in therapeutic areas have been outlined. Furthermore, international experiences in medical tourism development have been studied, particularly the cases of India and Jeju Island in South Korea, with recommendations formulated based on their models.

Keywords: medical tourism, reforms, India, South Korea, Jeju Island, Cohen, types of tourists.

Аннотация. В данной статье анализируется медицинский туризм, его особенности, а также проводимые в нашей стране реформы в данной сфере и их

эффективность. Рассматриваются определения медицинского туризма, предложенные зарубежными учёными. Определены меры, такие как реализация программы «Гостеприимство медицинских услуг», создание и развитие кластеров медицинского туризма, разработка бренда «Авиценна» для продвижения медицинского туризма Узбекистана, организация и сертификация категорийных (звездных) санаториев, а также создание санаторно-курортных зон в лечебных районах. Кроме того, изучен международный опыт развития медицинского туризма, в частности, примеры Индии и острова Чеджу в Южной Корее, на основе которых были разработаны рекомендации.

Ключевые слова: медицинский туризм, реформы, Индия, Южная Корея, остров Чеджу, Коэн, виды туристов.

For citation: Khaydarova D.I. Significance and characteristics of medical tourism. Towards a new economy, pedagogy and technology. 2025; 2(1): 131-138. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15595189>

Kirish. Mamlakatimizda tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, tibbiy turizm klasterlari va mehmonxona tipidagi zamonaviy sanatoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yish, ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi «Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-9-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida: Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligining: "Tibbiy xizmatlar mehmondo'stligi" ("Medical service hospitality") dasturini amalga oshirish; konsalting - diagnostika - davolash - turoperator - transport - tibbiy tarjimon xizmatlarini birgalikda ko'rsatadigan tibbiy turizm klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish; "Avitsenna" nomi ostida O'zbekiston Respublikasining tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi brendini ishlab chiqish va uni doimiy ravishda targ'ib qilib borish; toifali (yulduzli) mehmonxonalar tipidagi sanatoriylar faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni sertifikatlashtirish tizimini joriy qilish; tog'li, shifobaxsh balchiq qatlamlari bor hamda shifobaxsh suvlar qatoriga kiritilgan va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik suv (termal suv) obyektlari mavjud bo'lgan hududlarda sanatoriy-kurort zonalarini tashkil qilish; 2025-2026-yillarda Andijon, Namangan, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida zamonaviy talablar asosida sanatoriy-kurort zonalarini tashkil qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturlari tuzilgan, shuningdek, mamlakatning tibbiy turizm salohiyati va respublikadagi yirik davlat va xususiy tibbiyot muassasalarining mavjud imkoniyatlari va ular tomonidan ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni xorijiy davlatlarda keng targ'ib qilish choralari ko'rish va tibbiy turizm salohiyati yuqori bo'lgan davlatlarning (Hindiston, Turkiya, Germaniya, Isroil) yetakchi tibbiyot muassasalari filiallarini O'zbekistonda ochish choralari ko'rish kabi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, bunday chora tadbirlar mamlakatimizda tibbiy turizmni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Kohen [1] tibbiy turizmning an'anaviy ta'rifi asosida tibbiy muolajaning sayohatchilar motivatsiyasidagi o'rniga qarab, besh guruhdan iborat tasnif ishlab chiqildi: oddiy sayyoh davolangan sayyoh, to'g'ri tibbiy sayyoh, davolanayotgan dam oluvchi va faqat bemor. Quyidagi jadvalda Kohen tomonidan tibbiy turizm tasnifi bo'yicha ilgari surilgan besh guruhning ilmiy tahlili keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

**Kohen tomonidan tibbiy turizm tasnifi bo'yicha ilgari surilgan
besh guruhning ilmiy tahlili**

Sayyoh turi	Ta'rif	Motivatsiya	Xususiyatlari	Misollar
Oddiy sayyoh	Tibbiy xizmatlardan foydalanmaydigan sayyoh	Sayohat va dam olish maqsadida keladi	Tibbiy turizmga aloqador emas	Mamlakatga sayyohlik maqsadida kelib, faqat madaniy va tabiiy diqqatga sazovor joylarni tomosha qiladi
Davolangan sayyoh	Sayohat paytida tasodifiy tibbiy muolaja oladigan sayyoh	Asl motivatsiya - sayohat; lekin sog'liq bilan bog'liq favqulodda vaziyat yuzaga keladi	Tashrifning asosiy sababi tibbiy xizmat emas, lekin zarur bo'lsa, undan foydalanadi	Sayohat davomida grippga chalinib, mahalliy shifoxonaga murojaat qilgan sayyoh
To'g'ri tibbiy sayyoh	Sayohat bilan birga rejalashtirilgan yoki rejalashtirilmagan tibbiy muolaja oladigan sayyoh	Sayohat qilish va shu bilan birga tibbiy xizmatdan foydalanish	Sayohat qilishni maqsad qilgan, lekin muolajani ham qo'shimcha sifatida qabul qilgan	Singapurga dam olish uchun borib, estetika yoki stomatologiya xizmatidan foydalanish
Davolanayotgan dam oluvchi	Asosan davolanish uchun kelib, tiklanish jarayonida dam olish imkoniyatlaridan foydalanadigan sayyoh	Davolanish va reabilitatsiya jarayonini maroqli o'tkazish	Jarrohlik amaliyotidan so'ng, reabilitatsiya uchun tabiiy sanatoriy yoki kurortlardan foydalanadi	Hindistonda jarrohlik o'tkazib, operatsiyadan keyin sanatoriylarida dam olish
Faqat bemor	Faqat tibbiy maqsadda kelgan va dam olish bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanmaydigan shaxs	Yuqori sifatli yoki arzonroq tibbiy muolajaga ehtiyoj	Dam olish yoki turizmga qiziqmaydi, faqat tibbiy xizmatdan foydalanish uchun tashrif buyuradi	Yevropalik bemor Hindistonga faqat yurak jarrohligi uchun kelishi

Manba: tadqiqotlar doirasida olingan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Kohenning tasnifi tibbiy turizm ichida bemorlarning motivatsiyasini aniq farqlash imkonini beradi. Ushbu model shuni ko'rsatadiki, ba'zi sayohatchilar sog'lig'i bilan bog'liq sabablarni asosiy maqsad sifatida ko'rishsa, boshqalari sayohat qilish jarayonida tibbiy xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Ayniqsa, davolanayotgan dam oluvchi va faqat bemor tibbiy turizmning asosiy segmentlaridan hisoblanadi, chunki ular mezbon mamlakatga kelishining bosh sababi tibbiy xizmat olish bilan bog'liq. To'g'ri tibbiy sayyoh esa turizm va tibbiy xizmatning kombinatsiyasini ifodalaydi, bu esa mamlakatlarga ham turizm, ham sog'liqni saqlash sektoridan daromad olish imkonini beradi.

Demak, Kohen [1] o'z mamlakatidan boshqa mamlakatga davolanish maqsadida ketgan sayyohni ikki turga bo'lib o'rgangan, ya'ni, faqat tibbiy muolaja olish maqsadida mehmon mamlakatga tashrif buyuradigan va hech qanday dam olish yoki sayohat faoliyatidan foydalanmaydigan shaxs va jarrohlik amaliyoti yoki boshqa maxsus muolajalaridan so'ng tiklanish davrida dam olish imkoniyatlaridan ham foydalanadigan shaxsga bo'lgan.

Quyidagi jadvalda turli olimlar tomonidan tibbiy turizm bo'yicha taqdim etilgan fikrlar ilmiy tahlil shaklida keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

Xorijiy olimlar tomonidan tibbiy turizm ta'riflarining ilmiy tahlili

Olim(lar)	Tadqiqot yili	Asosiy g'oya	Dalillar va misollar
Gray va Poland	2008	Tibbiy turizm qadimdan mavjud bo'lib, XIX asrda o'rta sinf yevropaliklari sanatoriy va termal buloqlarga sayohat qilishgan	XIX asrda termal buloqlar va dengiz bo'ylariga borish ommalashgan
Hall	2013	Tibbiy turizm XX asr oxiri va XXI asr boshida sezilarli rivojlangan	Globalizatsiya va transport infratuzilmasining rivojlanishi bunga ta'sir qilgan
Goodrich va Goodrich	1987	Boy qatlam vakillari ilgari rivojlangan davlatlarga zamonaviy tibbiyotdan foydalanish uchun sayohat qilishgan	AQSh va Yevropa davlatlarida yuqori sifatli tibbiy xizmatlarga talab mavjud
Tucki va Cleave	2014	Rivojlanayotgan mamlakatlardan kelgan bemorlar ham rivojlangan davlatlarga borishni afzal ko'rgan	Tibbiy xizmat sifati va texnologik imkoniyatlar bunda muhim omil bo'lgan
Connell	2006-2013	1990-yillardan keyin tibbiy turizm keskin oshgan, ayniqsa rivojlangan mamlakatlardan Osiyo davlatlariga	Hindiston, Tailand va Malayziya arzon va sifatli tibbiy xizmat taklif qilgan
Manaf va boshqalar	2015	Rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlari tibbiy turizm markaziga aylangan	Arzon narxlar, sifatli xizmat va sayohat muddati bemorlarni jalb qilgan

Manba: tadqiqotlar doirasida olingan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Bu jadvalda olimlarning tadqiqotlari va tibbiy turizm rivojlanishiga oid ilmiy yondashuvlari umumlashtirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Hindiston sog'liqni saqlash turizmi bo'yicha yetakchi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. U tibbiy turizm bo'yicha eng arzon narx va eng yuqori sifatli xizmatlarni taklif etuvchi, shuningdek, ingliz tili keng qo'llaniladigan mamlakat bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, Hindistondagi shifoxonalarda yuqori malakali shifokorlar faoliyat yuritadi va ko'plab tibbiyot muassasalari Joint Commission International tomonidan akkreditatsiya qilingan. Xususan, Hindiston hukumati sog'liqni saqlash turizmini rivojlantirish va uni jahon bozorida targ'ib qilish uchun davlat va xususiy tashkilotlar bilan hamkorlikda keng qamrovli tashabbuslar amalga oshirmoqda. Sog'liqni saqlash turizmi mahsulotlaridan biri sifatida juda mashhur bo'lgan "Ayurveda Yoga" sayohat paketi bo'lib, an'anaviy Ayurveda terapiyasi va Toj Mahal tashrifini o'z ichiga oladi.

Hindiston Turizm Kengashi sayyohlarning tibbiy muolaja yoki meditatsiya dasturlarini va turistik mahsulotlarni mustaqil ravishda tanlashini rag'batlantirish maqsadida "Ayurveda Yoga" Markazi veb-sayti orqali xizmatlarni tanlash imkoniyatini taqdim etmoqda. Shuningdek, Hindiston hukumati xorijiy bemorlar uchun sayyohlik, transport va viza jarayonlarini yengillashtirishga mas'ul bo'lgan tibbiy turizmni targ'ib qilish jamoasini tashkil qilgan [4].

Janubiy Koreyada sog'liqni saqlash xizmatlari yuqori sifati va, nisbatan, past xarajatlari bilan mashhur. Janubiy Koreyaning eng mashhur turistik yo'nalishlaridan biri Jeju oroli bo'lib, sog'liqni saqlash turizmi uchun ham katta salohiyatga ega. Tabiiy resurslarning ko'pligi tufayli, Jeju oroli va Janubiy Koreya hukumati sog'liqni saqlash turizmini rivojlantirish maqsadida yangi tibbiy mahsulotlar va sog'lomlashtirish muhitini yaratish hamda xalqaro va mahalliy sog'liqni saqlash sayyohlarini jalb etish bo'yicha rivojlangan siyosat olib bormoqda [5].

Masalan, Janubiy Koreya hukumati uzoq muddatli kasalliklarni davolash yoki tibbiy yordam olish maqsadida kelgan xorijiy bemorlar va ularning oilalari uzoq muddatli vizaga ega bo'lmagan taqdirda ham, mamlakatda bo'lish muddatini bir yildan to'rt yilgacha uzaytirish imkoniyatini taqdim etgan. Jeju oroli nafaqat tabiiy go'zalligi, balki zamonaviy tibbiy infratuzilmasi bilan ham ajralib turadi. Bu hudud xalqaro standartlarga javob beradigan tibbiy xizmatlarni taqdim etish maqsadida rivojlantirilgan. Jeju oroli eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan o'nta yetakchi tibbiyot muassasalarini belgilagan. Shuningdek, xalqaro bemorlarni qabul qilish huquqiga ega bo'lgan 31 ta tibbiy muassasa ro'yxatga olingan. Orolning ekologik tozaligi va yuqori tibbiy texnologiyalar uyg'unligi profilaktik va diagnostik xizmatlarning yuqori sifatini ta'minlaydi. Jeju oroli YuNESCONing mukofotiga sazovor bo'lib, Jahon biosfera hududi, Jahon tabiiy merosi, va Global geologik bog' sifatida e'tirof etilgan. Bu esa, tibbiy xizmatlarni tabiat bilan uyg'unlashtirish imkonini yaratadi. Jeju oroli tabiiy go'zallikni saqlash va estetik xizmatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Orol hududida kosmetologiya, teri parvarishi, qarish jarayonini sekinlashtirish bo'yicha yuqori darajadagi muassasalar tashkil etilgan. Gotjawal o'rmonlari, an'anaviy qishloqlar va dengiz muhitining uyg'unligi estetik va sog'lomlashtirish xizmatlarining samaradorligini oshiradi. Jeju

tabiiy ingredientlarga boyligi bilan mashhur bo'lib, kosmetika va dermatologiya sohalarida katta ilmiy ahamiyatga ega. Aragonit minerali va yerosti suvlarining yuqori terapevtik xususiyatlari borligi tibbiy kosmetologiya va fizioterapiya yo'nalishlarida innovatsion yechimlarni taqdim etish imkonini beradi [2].

Jeju orolining sport infratuzilmasi ham sog'liqni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon Chempionati stadioni, professional futbol jamoasi, hamda suv sport turlari (serfing, yaxtachilik, skuba-dayving) rehabilitatsiya dasturlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tibbiyot sohasi mutaxassislari Jeju tabiatining noyob resurslaridan foydalanib, og'riqni boshqarish, stressdan xalos bo'lish va hissiy barqarorlikni saqlashga yo'naltirilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqqanlar. Bu dasturlar bemorlarga suv, o'rmon va oziq-ovqat orqali tiklanish imkoniyatini beradi.

Jeju oroli turizm va tibbiyot uyg'unligi asosida shakllangan yuksak sifatli sog'liqni saqlash tizimiga ega. Bu hudud ekologik tozalik, tabiiy resurslar va ilg'or tibbiy texnologiyalar uyg'unligi orqali profilaktika, diagnostika, rehabilitatsiya hamda estetik tibbiyot xizmatlarini rivojlantirishda noyob model hisoblanadi. Orolning sog'liqni saqlash tizimi xalqaro bemorlar uchun ham ochiq bo'lib, dunyoda tibbiy turizm markazlaridan biri sifatida rivojlanmoqda.

<https://www.visitjeju.net/> saytida, nafaqat, Jeju orolining turistik salohiyati, balki tibbiy turizmga oid barcha ma'lumotlarni topish mumkin bo'lib, bu sayyohlarga qulaylik yaratadi. Jeju orolidagi barcha kasalxonalar ro'yxati, tibbiy ixtisosliklar va ular bilan aloqa qilish vositalarigacha barcha ma'lumotlar berilgan.

Sog'liqni saqlash sayyohlariga qulaylik yaratish maqsadida maxsus tarjimonlar va sog'liqni saqlash turizmi koordinatorlari tayinlangan bo'lib, ular sayyohlarga jadval, xizmat va mahsulotlarni tanlashda yordam beradi. Jeju Free International City Development Center (JDC) tomonidan sog'liqni saqlash turizmini rivojlantirish bo'yicha taklif qilingan asosiy yo'nalishlar keltirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Tibbiy turizm zamonaviy global iqtisodiyotda muhim sohalardan biri bo'lib, uning rivojlanishi sog'liqni saqlash va turizm sektorlarining o'zaro integratsiyasiga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasida tibbiy turizmni rivojlantirish bo'yicha qator strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tibbiy xizmatlar mehmondo'stligi konsepsiyasining joriy etilishi, tibbiy turizm klasterlarining shakllantirilishi va «Avitsenna» brendi ostida milliy sog'lomlashtirish turizmini targ'ib qilish orqali xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirilgan tashabbuslar ilgari surilmoqda. Kohen tomonidan taklif etilgan tibbiy turizm klassifikatsiyasi bemorlarning motivatsiyasini tahlil qilish imkonini beradi. Unga ko'ra, tibbiy sayohatchilar sog'liqni tiklash va davolanish jarayonlarida dam olish imkoniyatlaridan foydalanish darajasiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Bunda ayniqsa, davolanayotgan dam oluvchi va faqat bemor segmentlari mezbon davlatga tibbiy xizmatlar uchun tashrif buyuradigan asosiy guruhlar hisoblanadi.

Dunyo miqyosida Hindiston va Janubiy Koreya tibbiy turizmning yetakchi markazlariga aylangan. Hindiston yuqori sifatli tibbiy xizmatlarni, nisbatan, arzon

narxlarda taklif etishi, tajribali tibbiyot xodimlari va akkreditatsiyadan o'tgan muassasalari bilan ajralib turadi. Shuningdek, Hindistonning Ayurveda kabi an'anaviy sog'lomlashtirish usullari xalqaro miqyosda katta qiziqish uyg'otmoqda. Janubiy Koreya esa ilg'or tibbiy texnologiyalari, diagnostika va estetik xizmatlarning yuqori sifati bilan tibbiy turizm bozorida raqobatbardosh mamlakatlardan biri sifatida tanilgan. Xususan, Jeju oroli ekologik tozalik, tabiiy shifobaxsh resurslar va ilg'or tibbiy infratuzilmaning uyg'unlashuvi orqali noyob sog'lomlashtirish tizimini shakllantirgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirishda xorijiy tajribalarga asoslanish, xususan, Janubiy Koreyaning Jeju oroli misolida mamlakatimiz turistik veb sahifasida, nafaqat, diqqatga sazovor joylar balki, tibbiy turizm obyektlari, ushbu sohadagi yetakchi destinatsiyalar haqidagi ma'lumotlar bilan boyitish, O'zbekistondagi tibbiy turizm rivojlangan viloyatlar, shifoxonalar va ixtisoslangan mutaxassislik bo'yicha zarur barcha ma'lumotlarni kiritish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. O'zbekistonda tibbiy turizm destinatsiyalari, asosan, tabiiy shifobaxsh resurslar, zamonaviy tibbiyot markazlari va sanatoriy-kurort muassasalariga asoslanganligini hisobga olib quyidagi destinatsiyalarni taklif qilamiz: Toshkent shahri zamonaviy klinikalari orqali yuqori texnologik tibbiy xizmatlarni taqdim etsa, hududiy sanatoriyalar va tabiiy g'orlar reabilitatsiya va sog'lomlashtirish yo'nalishlarida yetakchilik qiladi. Toshkentda xalqaro standartlarga mos kardiologiya, ortopediya, plastik jarrohlik va reproduktiv tibbiyot xizmatlari xorijiy bemorlarni jalb etmoqda. Buxoro va Surxondaryo tabiiy g'orlarining shifobaxsh havosi nafas yo'llari kasalliklarini davolashda samarali bo'lsa, Farg'ona vodiysi, Jizzax va Qashqadaryo mineral suv va balneoterapiya muolajalari bilan ajralib turadi. Andijon va boshqa hududlardagi termal buloqlar esa fizioterapiya va reabilitatsiya muolajalari uchun qulay sharoit yaratadi.

O'zbekiston tibbiy turizmini yanada rivojlantirish, xorijiy bemorlarni jalb qilish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Cohen E. (2008) Medical tourism in Thailand. AU-GSB e-Journal, 1(1), P. 24-37
2. Ананченко П.И., Камынина Н.Н. (2020) Некоторые аспекты развития медицинского и лечебно-оздоровительного туризма. Проблемы социальной гигиены, здравоохранения и истории медицины. 28(4), P. 605-609
3. Woźniak-Holecka J., Romaniuk P., Holecki T., Frączkiewicz-Wronka A., Jaruga S. (2017) Health Promotion Development in the Spa Treatment. Perspectives for the European Countries Learned from Poland's Experiences. Frontiers in pharmacology. 8:29
4. UNWTO Global and regional tourism performance. <https://www.unwto.org/global-and-regional-tourism-performance>
5. Sanjivan Gill S.S. Medical tourism market. <https://www.alliedmarketresearch.com/medical-tourism-market>

6. Medical Tourism Association Medical Tourism Index. <https://www.medicaltourism.com/mti/home>
7. Какабадзе Э.Ю. (2020) Формирование системы государственного управления в сфере медицинского и лечебно-оздоровительного туризма: дис.канд.экон.наук, С. 144
8. Digital transformation of financial services: development models and strategies for industry participants. Report of the SKOLKOVO NES Research center for financial technologies and digital economy
9. Abdrakhmanova G.I., Vasilkovsky S.A., Vishnevsky K.O. and others. (2023) Digital economy 2023: a brief statistical collection. National research University «Higher School of Economics». P. 120
10. Самсонов Е.А. (2021) Налоговые льготы как инструмент налогового планирования в организации. Материалы конференций ГНИИ «Нацразвитие»: Сборник избранных статей по материалам научных конференций ГНИИ «Нацразвитие», СанктПетербург. С. 60-62
11. Ikhtierovna H. D., Bakhodirovna J.N. (2023). Influence of Instagram on the image of the country. Journal of innovation, creativity and art, 2(2), P. 1-5
12. Khaydarova D. (2024) Mamlakatimizda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 49(49)
13. Khaydarova D. (2024) Mamlakatimizda pandemiyadan keyingi sharoitda turizmni rivojlantirishda SMM vositalarini qo'llash. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 49(49)
14. Ikhtiyorovna K.D. (2024) Digital economy: developments in Uzbekistan and world practice. Marketing, 1(3), P. 107-112
15. Ikhtiyorovna K.D. (2022) The role of SMM for creating the destination Image of Uzbekistan. Asian journal of management, entrepreneurship and social science, 2(02), P. 154-163
16. Khaydarova D.I., Djurayeva N.B. (2022) Influences Instagram on Destination Image of a Country. European journal of innovation in nonformal education, 2(5), P. 60-65